



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 30-mart

71-5-0-Q/26

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyati hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi “Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-42-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 22-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi “Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-42-son qaroriga asosan viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchilari va ularning kotibiyatlari shtat birliklari qisqartirilib, Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligiga o‘tkazilishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligi boshqaruv apparatida viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi, viloyat hokimning mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi kotibiyati mudiri va master-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha loyiha ofisi bosh mutaxassisi shtat birliklari (3 ta) Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligiga o‘tkazilayotganligi sababli qisqartirilsin.

3. Navoiy viloyati hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (E. Avezov), Ishlar boshqarmasi (S. Shamshiyev) viloyat hokimligining tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan bo‘shab qoladigan xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda

ishga joylashtirish choralarini ko'rsin, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq kompensatsiya va boshqa to'lovlarni amalga oshirilishini ta'minlasin.


5. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (E. Avezov) mazkur qarorni xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdagi sessiyasi tasdig'iga o'rnatilgan tartibda kiritsin.

6. Viloyat hokimining 2016-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrda "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2691-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi Q-172-son qarorining 1-ilovasi ilovaga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan viloyat hokimining 2026-yil 12-yanvarda "Navoiy viloyati hokimligi tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida"gi 5-5-0-Q/26-sonli qarorining 1-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.


8. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimligi boshqaruv apparatining TUZILMASI



Izoh: ** - maxfiy-rejim organi

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni - 59 nafar